

O'ZBEKISTONDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI INNOVATSION ASOSDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Taubayeva Madina

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada davlatimiz tashqi iqtisodiy aloqalari faoliyatida innovatsiyalar qo'llash hamda uni rivojlantirish borasida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Mamlakat, iqtisod, eksport, strategiya, davlat, salohiyat, salmog', tarmoq, faoliyat, tovar.*

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada o'sishida korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun, milliy tovarlarning tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlaydigan yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish, eksport faoliyatini soddalashtirish va erkinlashtirish, eksport tuzilmasini diversifikatsiya qilish, eksportga ixtisoslashgan qo'shma korxonalarini barpo etish, iqtisodiyot tarmoqlarining eksport salohiyatini kengaytirish, eksportni kengaytirishga qaratilgan strategiyani faol qo'llash bilan bir qatorda importning salmog'ini qisqartirishga qaratilgan ishlarni jadal olib borish zarur.

Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda davlat idoralarining, yuridik va jismoniy shaxslarining boshqa xorijiy davlatlar, ularning ularning yuridik va jismoniy shaxslari, xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali hamkorlik o'rnatishga, bunday hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan jami amaliy harakatlari tushuniladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'nalishlari:

- tashqi savdo faoliyati; - xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik;
- chet el investitsiyalarini jalb qilish.

Tashqi savdo faoliyati – bu mahsulotlar, mehnat, xizmatlar, axborotlar va intellektual soha natijalari bo'yicha dunyo miqyosida tadbirkorlik faoliyatidir. Tashqi savdo faoliyati tovarlarni, xizmatlarni eksport va import qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda davlatlar o'rtasidagi xalqaro savdoning rivojlanishi, ishlab chiqarish integratsiyalashuvining kengayishi va takomillashuvi tashqi iqtisodiy faoliyatning yanada erkinlashuviga sabab OO'lmoqda. Bugungi OOzor islohotlari munosabatlarning yangi strategiyasi asosiy yo'nalishlaridan biri - tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishni muvofiqlashtirish hisoblanadi. Bu munosabatlar bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samarasi, mamlakat ichki va tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan jihatlam, shu '* jumladan, tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlash, eksport.Ja import munosabatlarda ilg'or siljishlami rag'batlantirish, xorijiy kapital oqimini kuchaytirishga yo'naltirilgan vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan qonunchilik, ijroiya va nazorat qilish

yo'nalishidagi chora-tadbirlar tizimini yaratishni o'z ichiga oladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni oqilona tartibga solish davlat iqtisodiy rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Bu esa o'z navbatida, mamlakatning o'ziga xos ichki va tashqi sharoitlarini inobatga olgan holda, jahon bozorining salbiy o'zgarishlaridan himoya qiluvchi, unda egaUangan mavqeni saqlab qolish va kengaytirishni ta'minlovchi maqbul darajadagi proteksionizm va erkin savdo siyosati qo'llanilishini taqozo etadi. Q'tish davri iqtisodiyotini OOshidan kechirayotgan mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirish uchun o'zini erkin OOzor girdobiga tashlab qo'ya olmaydi. Bunday sharoitda dJJvlatning rivojlantirish kafolati sifatida faol qatnashuviga zaruriyat tug'i1adi. Bozor munosabatlariga o'tishning ilk OOsqichlarida tashqi iqtisodiy aloqalarning davlat tomonidan tartibga solinishi, ayniqsa, muhimdir.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq tashqi iqtisodiy sohani boshqarishning o'ziga xos tizimlarini tezkor shakllantirish, tashqi aloqalarni yo'lga qo'yish, tamoyillarni ishlab chiqish, respublikaning jahon iqtisodiyoti tizimiga integratsiyalashuvi yo'llaririi mustaqil belgilab olish vazifasi yo'lga qo'yiJgan edi. Ayni paytda, respublika hukumati tomonidan tashqi iqtisodiy faoJiyatni rivojlantirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarning amalga oshirilishi va zaruriy huquqiy asoslarning yaratilishi O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy mamlakatlar jismoniy va yuridik shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali hamkorlik aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishga imkon berdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida”gi Qonunining qabul qilinishi bu ishlarni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy tatl'loyillarini belgilab berdi. Mazkur qonunning 17 -moddasiga ko'ra ular .quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- tashqi iqtisodiy faoliyatning qonunchilik negizini shakllantirish va takomillashtirish;
- valyuta siyosati orqali amaiga oshirish;
- soliq siyosati orqali tartibga solish;
- tarif va notarif yo'l-yo'riqlar orqali tartibga solish;
- O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlariga rioya etilishi uchun himoya, kompensatsiya va dempingga qarshi choralarni qo'llash;
- tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilash, shu jumladan miqdoriy cheklovlar o'matish hamda tovarlarning ayrim turlarini eksport va import qilinishi ustidan davlat monopoliyasini o'rnatish;
- texnikaviy, fannakologiya, sanitariya, veterinariya, fitosanitariya, ekologiya standartlari va talablarini belgilash;
- tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari uchun preferentsiya va imtiyozlar berish.

Globallashuv jarayonining hozirgi bosqichidagi muhim yo'nalishlardan biri – O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish hamda jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonlarini kuchaytirish hisoblanadi. Bu borada mamlakatimizning ko'plab mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishi, jahondagi turli iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning teng huquqli a'zosiga aylanishi

e'tiborga molikdir. Tashqi savdo aloqalari xalqaro hamkorlikning muhim sohalaridan biri bo'lib, turli mamlakatlar bilan ilmiytexnik, madaniy aloqalarni yo'lga qo'yish ular o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatish iqtisodiyotni faol va har tomonlama rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda yordam beruvchi vositadir. Mamlakatimizda tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish, jahon bozorlariga yuqori sifatli tayyor mahsulotlar bilan kirib borish va mustahkam o'rin egallash, eksport hajmini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi davrda mamlakatimizning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi asosiy strategiyasi import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni tashkil qilish bilan birga eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish va o'zining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish"[1] alohida ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali bajarilishi mamlakatimizdagi ishbilarmonlik muhitining yanada yaxshilanishini, korxonalar ishlab chiqarishiga xorijdan zamonaviy texnikatexnologiyalarni jalb etishni faollashtirishni taqozo etadi, bu esa o'z navbatida mahsulotlar eksportini ko'payishiga, umuman olganda eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni faol tarzda amaliyotga joriy etishga bo'lgan talabni kuchaytiradi.

Mamlakatimizning tashqi iqtisodiy sohasida tashqi savdo hajmi va eksportni tizimli ravishda jadal oshirishga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi, xususan, valyuta siyosati liberallashtirildi, ma'muriy to'siqlar bartaraf etildi, eksport qilinadigan mevasabzavot mahsulotlari uchun narxlarni shakllantirish va to'lovning bozor mexanizmi joriy qilindi. Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan tadbirlarning samaradorligi ustidan muntazam ravishda olib borilayotgan monitoring tashqi savdo va eksportning umumiy ijobiy dinamikasiga qaramasdan ular hajmlarining real o'sish sur'atlari iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sur'atlariga muvofiq emasligini ko'rsatmoqda. Birinchi navbatda raqobatbardosh afzalliklarga ega bo'lgan tarmoqlarda bir qator tizimli muammolar va kamchiliklarning saqlanib qolayotganligi eksport hajmlarining salmoqli o'sishini ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda. Jumladan: birinchidan, ishlab chiqarish quvvatlaridan va keng turdagi xomashyo, shuningdek, mehnat resurslari mavjud bo'lgan hamda tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lgan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlovchi afzalliklardan to'liq hajmda foydalanilmayapti;

ikkinchidan, eksport qiluvchi korxonalar faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalari rivojlanmayapti, eksportoldi va eksportni moliyalashtirish mexanizmlari mavjud emas;

uchinchidan, chuqur marketing tadqiqotlarini o'tkazish, uzoq muddatli barqaror tashqi bozorlarni shakllantirish va xorijda tashqi savdo infratuzilmasini yaratishga etarli darajada e'tibor qaratilmayapti;

to'rtinchidan, har xil xizmat turlari eksportini tashkil qilish va ilgari surish bo'yicha tizimli ishlar mavjud emas, ularni ko'rsatish uchun zarur infratuzilma rivojlanmagan.

O'zbekistonda innovatsiyalar asosida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish istiqbollari istiqbolli. O'zbekiston innovatsiyalarni o'zlashtirib, xorijiy sarmoyani jalb qilishi, raqobatbardoshligini oshirishi va iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishi mumkin. Ba'zi mumkin bo'lgan imtiyozlar quyidagilardan iborat:

1. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni) jalb qilish: Innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyotlar o'sish va rentabellik salohiyati tufayli ko'proq to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qiladi. Innovatsion amaliyot va texnologiyalar orqali O'zbekiston xorijiy investorlar uchun jozibador ishbilarmonlik muhitini yaratishi mumkin.

2. Raqobatbardoshlikni oshirish: Innovatsiyalar korxonalariga yangi mahsulotlarni ishlab chiqish, jarayonlarni yaxshilash va noyob qiymat takliflarini taklif qilish imkonini beradi. O'zbekiston innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali jahon bozorida o'z tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirishi mumkin.

3. Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish: innovatsiyalar yuqori qiymatga ega bo'lgan sanoatni rivojlantirish va an'anaviy tarmoqlardan tashqarida kengaytirish orqali O'zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishga yordam beradi. Bu diversifikatsiya yagona sanoatga bog'liqlikni kamaytirishi va iqtisodiy o'sish uchun yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin.

4. Ish o'rinlari yaratish va ko'nikmalarni rivojlantirish: Innovatsiyalarga asoslangan tarmoqlar ko'pincha malakali ishchi kuchini talab qiladi. O'zbekiston innovatsiyalarni rag'batlantirish orqali yangi ish o'rinlari yaratishi va kelajak iqtisodiyoti ehtiyojlariga mos keladigan malaka oshirishga sarmoya kiritishi mumkin.

5. Savdo munosabatlarini yaxshilash: Innovatsiyalar xalqaro bozorlarga eksport qilinadigan yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqishga olib kelishi mumkin. Innovatsiyalarni rag'batlantirish orqali O'zbekiston savdo aloqalarini yaxshilashi va eksport hajmini oshirishi, iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda innovatsiyalarning to'liq salohiyatini ochish uchun O'zbekiston ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga sarmoya kiritishi, ilmiy doiralar va sanoat o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishi, innovatsiyalarni rag'batlantirishi va qo'llab-quvvatlovchi me'yoriy-huquqiy bazani yaratishi kerak.

Globalashuv sharoitida milliy xo'jaliklarning umumjahon mehnat taqsimotida faol ishtirok etishi ularning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishining muhim shartiga aylanib bormoqda. O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlariga kirib borishi, respublikamizning ham ichki, ham tashqi salohiyatni yanada yuksaltirmoqda. O'zbekistonning integratsiya tuzilmalaridagi ishtiroki tufayli uning ikki tomonlama va ko'p tomonlama xalqaro aloqalari kengayib borayotganligi, dunyo jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони. ПФ-4947-сон, 2017 йил 7 феврал. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017 й., 6-сон, 70-модда.
2. Ataniyazov J., Alimardonov E. “Xalqaro moliya munosabatlari”. Darslik. T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2014 y. – 432 b
3. Alimov A., Ahmedov I. O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. T. 2004.
4. Стровский Л.Е. «Внешнеэкономическая деятельность предприятия» Учебник. 5-е изд., перераб. и доп. — М. : ЮНИТИ-ДАНА, 2011.
5. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Faoliyati to‘g‘risidagi qonuni.